

KONSTITUTSIYAGA MUVOFIQ SHAXSNING BUZILGAN HUQUQ VA ERKINLIKLARINI TIKLASHNING HUQUQIY MEXANIZMLARI

Raximov Xabibullo Umidjon o'g'li

Farg'ona yuridik texnikumi "Sud-huquqiy faoliyat"

yo'nalishi 2-bosqich 43-24-guruh o'quvchisi

Annotatsiya: Maqolada O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga muvofiq shaxsning buzilgan huquq va erkinliklarini tiklash tushunchasi, uning konstitutsiyaviy-huquqiy mazmuni hamda amalga oshirish mexanizmlari tahlil qilingan. Sud orqali himoyalash, davlat organlarining qarorlari, harakatlari va harakatsizligi ustidan shikoyat qilish, yetkazilgan zararni qoplash, Ombudsmanga va Konstitutsiyaviy sudga murojaat etish institutlarining o'zaro munosabati ochib berilgan. Buzilgan huquqni tiklash faqat huquqbuzarlikni e'tirof etish bilan cheklanmasdan, shaxsning avvalgi huquqiy holatini amalda qayta ta'minlash, zarar oqibatlarini bartaraf etish va huquqning takroran buzilishini oldini olishni qamrab olishi asoslangan.

Kalit so'zlar: Konstitutsiya, inson huquqlari, huquqni tiklash, sud himoyasi, samarali huquqiy himoya vositasi, ma'muriy shikoyat, zararni qoplash, Ombudsman, konstitutsiyaviy shikoyat.

Huquqiy demokratik davlatda inson huquqlarini Konstitutsiya va qonunlarda e'lon qilishning o'zi yetarli emas. Mazkur huquqlar buzilgan taqdirda ularni tezkor, to'liq va samarali tiklash imkoniyati mavjud bo'lsagina konstitutsiyaviy huquqlar real ijtimoiy qadriyatga aylanadi. Shu ma'noda huquq va erkinliklarni tiklash davlatning ixtiyoriy faoliyati emas, balki inson qadrini ta'minlashga qaratilgan konstitutsiyaviy majburiyatidir. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 54-moddasida insonning huquq va erkinliklarini ta'minlash davlatning oliy maqsadi ekani, davlat Konstitutsiya va qonunlarda mustahkamlangan huquq hamda erkinliklarni ta'minlashi belgilangan. Konstitutsiyaning 55-moddasi esa har kimning o'z huquq va erkinliklarini qonunda taqiqlanmagan barcha usullar bilan himoya qilishi, sudga murojaat etishi, davlat organlari va mansabdor shaxslarning qonunga xilof qarorlari, harakatlari yoki harakatsizligi ustidan shikoyat qilishi, ishi vakolatli, mustaqil va xolis sud tomonidan belgilangan muddatlarda ko'rib chiqilishi hamda yetkazilgan zarar davlat tomonidan qoplanishi huquqini kafolatlaydi.[1] Mazkur normalar huquqni tiklashni sud himoyasi, shikoyat qilish, ishni xolis ko'rib chiqish va kompensatsiya to'lashdan iborat yagona konstitutsiyaviy tizim sifatida belgilaydi.

Yuridik adabiyotlarda "huquqni ta'minlash", "huquqni muhofaza qilish", "huquqni himoya qilish" va "huquqni tiklash" tushunchalari bir-biriga yaqin bo'lsa-da, mazmunan farq qilishi ta'kidlanadi. Huquqni ta'minlash shaxsning huquqlardan

foydalanishi uchun siyosiy, iqtisodiy, tashkiliy va yuridik shart-sharoitlar yaratishni anglatadi. Muhofaza qilish huquqbuzarlik sodir etilishidan oldingi profilaktik choralarni ham qamrab oladi. Himoya qilish esa huquq buzilgan yoki buzilish xavfi mavjud bo'lganida vakolatli organlar hamda shaxsning o'zi tomonidan qo'llaniladigan huquqiy vositalar majmuidir. Tiklash himoyaning yakuniy natijasi bo'lib, shaxsni huquqbuzarlik sodir etilmaganida mavjud bo'lishi lozim bo'lgan huquqiy va imkon qadar moddiy holatga qaytarishni anglatadi. O.T. Husanov inson huquqlarining kafolatlarini iqtisodiy, siyosiy, huquqiy va tashkiliy vositalar tizimi sifatida baholab, sud himoyasini davlat organlarining o'zi tomonidan sodir etilgan huquqbuzarliklarga nisbatan ham qo'llanishi mumkin bo'lgan eng ta'sirchan yuridik kafolatlardan biri sifatida ko'rsatadi.[2]

Shaxsning buzilgan huquqini tiklash tushunchasiga faqat huquqbuzar qarorni bekor qilish nuqtayi nazaridan yondashish yetarli emas. Tiklash, birinchidan, huquq buzilganligini vakolatli organ tomonidan e'tirof etishni; ikkinchidan, noqonuniy qaror, harakat yoki harakatsizlikning huquqiy oqibatlarini bekor qilishni; uchinchidan, shaxsning avvalgi huquqiy holatini qayta ta'minlashni; to'rtinchidan, yetkazilgan moddiy va ma'naviy zararni qoplashni; beshinchidan, qabul qilingan qarorning amalda ijro etilishini; oltinchidan, xuddi shunday huquqbuzarlikning takroran sodir etilishini bartaraf etuvchi choralarni qamrab oladi. Masalan, shaxsni ishdan qonunsiz bo'shatish faktining sud tomonidan tan olinishi huquqni tiklashning faqat dastlabki bosqichidir. To'liq tiklash uchun u avvalgi ishiga qaytarilishi, majburiy progul davri uchun tegishli to'lovlarni olishi, mehnat staji va boshqa huquqiy oqibatlari qayta hisoblanishi hamda sud hujjati amalda ijro etilishi kerak. Demak, huquqbuzarlikni aniqlash bilan huquqni tiklash aynan bir tushuncha emas.

Konstitutsiyaning 15-moddasiga ko'ra, Konstitutsiya mamlakatning butun hududida oliy yuridik kuchga ega bo'lib, to'g'ridan-to'g'ri amal qiladi. Ushbu qoida sudlar va boshqa davlat organlaridan konstitutsiyaviy huquqlarni faqat sohaviy qonun qabul qilinganida emas, balki bevosita Konstitutsiya normalari asosida ham ta'minlashni talab qiladi.[3] Konstitutsiyaning 20-moddasida inson huquq va erkinliklarining bevosita amal qilishi, ular davlat organlari va mansabdor shaxslar faoliyatining mohiyati hamda mazmunini belgilashi, huquqiy ta'sir choralari mutanosib bo'lishi va inson bilan davlat o'rtasidagi munosabatlarda qonunchilikdagi bartaraf etib bo'lmaydigan ziddiyat hamda noaniqliklar inson foydasiga talqin qilinishi mustahkamlangan. Bu qoidalar buzilgan huquqni tiklash jarayonida "inson manfaatining ustunligi" prinsipini qaror toptiradi. Binobarin, davlat organi formal talablarni shaxs huquqini tiklamaslik vositasiga aylantirmasligi, sud esa huquqiy normani uning insonparvarlik va konstitutsiyaviy maqsadidan kelib chiqib sharhlashi kerak.

Buzilgan huquqni tiklashning dastlabki vositalaridan biri davlat organlari va tashkilotlarga ariza yoki shikoyat bilan murojaat qilishdir. Konstitutsiyaning 40-moddasi har kimga davlat organlari, tashkilotlar, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari, mansabdor shaxslar va xalq vakillariga murojaat qilish huquqini beradi hamda murojaatlarni qonunda belgilangan tartib va muddatlarda ko'rib chiqish majburiyatini o'rnatadi.[4] "Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari to'g'risida"gi Qonunga muvofiq, shikoyat buzilgan huquq, erkinlik va qonuniy manfaatlarni tiklash to'g'risidagi talab bayon etilgan murojaat shakli hisoblanadi. Ma'muriy shikoyatning afzalligi uning sud jarayoniga nisbatan tezkor, kamxarajat va sodda bo'lishi, yuqori turuvchi organga quyi organning qarorini mustaqil ravishda qayta ko'rib chiqish imkoniyatini berishida namoyon bo'ladi. Biroq ma'muriy shikoyat sud himoyasining o'rnini bosmaydi. Shaxsning yuqori turuvchi organga murojaat qilganligi, qonunda boshqacha qoida belgilanmagan bo'lsa, uning sudga murojaat qilish huquqini cheklamasligi lozim.

Ma'muriy organning o'zi huquq buzilishining oldini olish va uni bartaraf etishga majbur bo'lgan birinchi subyekt hisoblanadi. "Ma'muriy tartib-taomillar to'g'risida"gi Qonunda qonuniylik, mutanosiblik, ishonchlilik, shaxsni tinglash, ochiqlik, shaffoflik, manfaatdor shaxs huquqlarining ustuvorligi va byurokratik rasmiyatchilikka yo'l qo'ymaslik prinsiplari belgilangan. Qonunning 19-moddasiga ko'ra, ushbu prinsiplarga nomuvofiq ma'muriy hujjatlar va harakatlar bekor qilinishi yoki qayta ko'rib chiqilishi mumkin. Demak, huquqni tiklash har doim ham sud aralashuvini kutib turmasligi, ma'muriy organ qonunsiz qarorini o'z tashabbusi yoki shikoyat asosida bekor qilib, shaxsning huquqiy holatini qayta ta'minlashi kerak.

Sud orqali himoya qilish buzilgan huquqni tiklashning markaziy va universal kafolati hisoblanadi. Sud boshqa davlat organlaridan institutsional mustaqilligi, taraflarning tengligi, dalillarni bevosita tekshirishi va majburiy kuchga ega qaror qabul qilishi bilan ajralib turadi. A.R. Mo'minov va M.A. Tillabayev inson huquqlarini himoya qilishning milliy mexanizmi o'zaro bog'langan davlat organlari, sudlar va milliy institutlar tizimidan iboratligini, huquqiy himoya samaradorligi ularning vakolatlari hamda qabul qilingan qarorlarni ijro etish imkoniyatiga bog'liqligini ta'kidlaydilar.[5] Konstitutsiyaning 55-moddasi sud himoyasini faqat sudga ariza berish imkoniyati sifatida emas, balki ishning vakolatli, mustaqil va xolis sud tomonidan qonunda belgilangan muddatlarda ko'rib chiqilishi huquqi sifatida ifodalaydi. Shu bois sudga formal kirish imkoniyati mavjud bo'lib, ish asossiz cho'zilsa, taraflar tengligi ta'minlanmasa yoki sud qarori ijro etilmasa, huquqiy himoyani to'liq va samarali deb baholab bo'lmaydi.

Buzilish xususiyatiga ko'ra shaxs fuqarolik, jinoyat, ma'muriy yoki boshqa sud ishlarini yuritish tartibida himoya qilinadi. Davlat organlari, mahalliy hokimiyat organlari va ular mansabdor shaxslarining ommaviy-huquqiy munosabatlar sohasidagi

qarorlari, harakatlari yoki harakatsizligi ma'muriy sudda nizolashiladi. Ma'muriy sud ishlarini yuritish to'g'risidagi kodeksning vazifalari qatoriga ma'muriy va boshqa ommaviy-huquqiy munosabatlarda fuqarolarning buzilgan yoki nizolashilayotgan huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish kiritilgan. Kodeksning 4-moddasi har qanday manfaatdor shaxsga o'z huquqlarini himoya qilish uchun ma'muriy sudga murojaat qilish huquqini beradi, 184-189-moddalari esa ma'muriy organlar qarorlari, harakatlari va harakatsizligini nizolash tartibini belgilaydi.[6] Bunday ishlarda sudning vazifasi ma'muriy organning formal vakolati mavjudligini tekshirish bilan cheklanmay, qarorning qonuniy maqsadga muvofiqligi, mutanosibliigi, asoslantirilganligi va shaxs huquqiga ortiqcha aralashmaganligini ham baholashdan iborat.

Sud himoyasidan foydalanishning iqtisodiy jihatdan maqbulligi ham muhimdir. Shaxs huquqini tiklash uchun to'lay olmaydigan darajada davlat boji yoki boshqa xarajatlar belgilansa, sudga murojaat qilish huquqi amalda cheklanib qoladi. Shu nuqtayi nazardan, 2024-yil 1-yanvardan fuqarolar va tadbirkorlik subyektlari ma'muriy sudlarga davlat organlari qarorlari, harakatlari va harakatsizligi ustidan murojaat qilganda davlat bojini ariza berish paytida to'lamasligi, uni ishni ko'rib chiqish natijasiga ko'ra aybdor tarafdin undirish tartibining joriy etilganligi sud himoyasidan foydalanish imkoniyatini kengaytirdi.[7]

Buzilgan huquqni tiklashning muhim tarkibiy qismi zararni qoplashdir. Konstitutsiya 55-moddasining beshinchi qismi davlat organlari yoki ular mansabdor shaxslarining qonunga xilof qarorlari, harakatlari yoxud harakatsizligi tufayli yetkazilgan zarar davlat tomonidan qoplanishini kafolatlaydi. Fuqarolik kodeksining 11-moddasi huquqni tan olish, huquq buzilishidan oldingi holatni tiklash, huquqni buzuvchi harakatlarni to'xtatish, davlat organi hujjatini haqiqiy emas deb topish, zararni va ma'naviy ziyonni qoplash kabi fuqarolik huquqlarini himoya qilish usullarini nazarda tutadi. Kodeksning 15 va 990-moddalari davlat organlari, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari hamda ularning mansabdor shaxslari tomonidan yetkazilgan zararni qoplash asoslarini belgilaydi.[8] Bunda kompensatsiya faqat bevosita yo'qotilgan mol-mulkni emas, qonunda nazarda tutilgan hollarda boy berilgan foyda va ma'naviy ziyonni ham qamrab olishi lozim.

Huquqni tiklashning samaradorligi sud hujjatining ijro etilishi bilan uzviy bog'liq. Sud tomonidan shaxs foydasiga qaror qabul qilinib, u amalda bajarilmasa, huquqning deklarativ tarzda tan olinishi yuz beradi, xolos. Shu sababli huquqni tiklashning protsessual mexanizmi "murojaat qilish – ishni ko'rib chiqish – qaror qabul qilish – qarorni ijro etish – zarar oqibatlarini bartaraf etish" bosqichlarining barchasini qamrab olishi kerak. Sud qarorini o'z vaqtida va to'liq ijro etish odil sudlovdan tashqaridagi texnik jarayon emas, balki sud himoyasi huquqining mantiqiy davomi hisoblanadi.

Konstitutsiyaning 56-moddasiga muvofiq, inson huquqlari bo'yicha milliy institutlar mavjud himoya shakllari va vositalarini to'ldiradi. Bunday institutlar orasida Oliy Majlisning Inson huquqlari bo'yicha vakili — Ombudsman alohida o'rin tutadi. 2024-yil 15-noyabrda qabul qilingan yangi tahrirdagi "O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Inson huquqlari bo'yicha vakili (ombudsman) to'g'risida"gi Qonunga ko'ra, Ombudsman davlat organlari, huquqni muhofaza qiluvchi va nazorat qiluvchi organlar, tashkilotlar hamda mansabdor shaxslar tomonidan inson huquqlari to'g'risidagi qonunchilikka rioya etilishi ustidan parlament nazoratini amalga oshiradi va mavjud himoya vositalarini to'ldiradi.[9] U murojaatlarni tekshirish, tashkilotlarga xulosa, taqdimnoma, iltimosnoma va talab kiritish, ayrim hollarda fuqarolar manfaatida sudga murojaat qilish imkoniyatiga ega. Ombudsman sudning o'rnini bosmaydi va sud hujjatini bekor qila olmaydi, ammo byurokratik to'siqlarni aniqlash, huquqbuzarlikning tizimli sabablarini ochish va vakolatli organni huquqni tiklash choralari ko'rishga undash orqali sudgacha va suddan tashqari himoyani kuchaytiradi.

Konstitutsiyaviy shikoyat ham shaxs huquqini tiklashning maxsus huquqiy vositasidir. Oddiy sudlar muayyan ishdagi faktlar va sohaviy qonunning qo'llanilishini tekshirsa, Konstitutsiyaviy sud huquq buzilishiga sabab bo'lgan qonunning Konstitutsiyaga muvofiqligini baholaydi. "O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyaviy sudi to'g'risida"gi Konstitutsiyaviy Qonunning 27 va 86-moddalariga ko'ra, muayyan sud ishida qo'llanilgan qonun shaxsning konstitutsiyaviy huquqlarini buzgan deb hisoblansa va sud orqali himoya qilishning boshqa barcha vositalaridan foydalanib bo'lingan bo'lsa, fuqaro yoki yuridik shaxs Konstitutsiyaviy sudga shikoyat qilishi mumkin. Shikoyat sudda ishni ko'rib chiqish tugallangan kundan e'tiboran bir yildan kechiktirmay berilishi lozim.[10] Konstitutsiyaviy sud qonun yoki uning bir qismini Konstitutsiyaga muvofiq emas deb topishi huquq buzilishining normativ sababini bartaraf etadi va o'xshash munosabatlarda boshqa shaxslar huquqlari buzilishining ham oldini oladi.

Konstitutsiyaning 55-moddasida ichki huquqiy himoya vositalaridan foydalanib bo'linganidan keyin inson huquqlarini himoya qiluvchi xalqaro organlarga murojaat qilish huquqi ham belgilangan. Mazkur norma Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasining 8-moddasidagi samarali milliy huquqiy himoya vositasiga bo'lgan huquq hamda Fuqarolik va siyosiy huquqlar to'g'risidagi xalqaro paktning 2-moddasi uchunchi qismidagi buzilgan huquq uchun samarali himoya vositasini ta'minlash majburiyati bilan uyg'undir.[11] Biroq xalqaro himoya milliy organlarning o'rnini bosuvchi birinchi instansiya emas. U milliy sudlar va davlat organlari huquq buzilishini samarali bartaraf eta olmagan hollarda qo'llaniladigan subsidiar mexanizm hisoblanadi.

Huquqni tiklash mexanizmlarini baholashda faqat murojaatlar soni yoki qabul qilingan qarorlarni hisoblash yetarli emas. S. Bokiyeu inson huquqlarini himoya qilish sohasida milliy indikatorlarni shakllantirish masalasini tahlil qilib, davlat organlari faoliyatini huquqning amalda tiklanganligi, qarorlar ijrosi, murojaatni ko'rib chiqish muddati va huquqbuzarliklarning takrorlanish darajasi kabi o'lchovlar asosida baholash zaruratini asoslaydi.[12] Shu ma'noda huquqni tiklashning samaradorligini baholashda shaxsning shikoyati qanoatlantirilgani emas, uning avvalgi huquqiy holati amalda qayta ta'minlangani, kompensatsiya to'langani va huquqbuzarlik sabablari bartaraf etilgani hal qiluvchi mezon bo'lishi kerak.

Xulosa o'rnida aytish mumkinki, Konstitutsiyaga muvofiq shaxsning buzilgan huquq va erkinliklarini tiklash sudga murojaat qilish imkoniyati bilangina cheklanmaydigan kompleks konstitutsiyaviy-huquqiy jarayondir. U huquqbuzarlikni aniqlash, qonunsiz qaror yoki harakatni bekor qilish, shaxsni avvalgi huquqiy holatiga qaytarish, yetkazilgan zararni qoplash, sud hujjatini amalda ijro etish va huquqning takroran buzilishiga sabab bo'lgan omillarni bartaraf etishni qamrab oladi. Konstitutsiyaning to'g'ridan-to'g'ri amal qilishi, inson huquqlarining davlat organlari faoliyati mazmunini belgilashi, qonunchilikdagi noaniqliklarni inson foydasiga talqin qilish, sud orqali himoya, kompensatsiya, Ombudsman va konstitutsiyaviy shikoyat institutlarining o'zaro bog'liqligi inson huquqlarini tiklashning yaxlit milliy tizimini shakllantiradi. Mazkur tizim samaradorligining asosiy mezoni esa qabul qilingan hujjatlar soni emas, balki muayyan shaxsning buzilgan huquqi o'z vaqtida, to'liq va amalda tiklanganligi bo'lishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar hamda iqtiboslar:

- [1,3] O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. <https://lex.uz/docs/6445145>.
- [2] Husanov O.T. Konstitutsiyaviy huquq: darslik. To'ldirilgan va qayta ishlangan to'rtinchi nashr. — T.: Toshkent davlat yuridik universiteti, 2022. 137–143-betlar.
- [4] O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. <https://lex.uz/docs/6445145>; "Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni. <https://lex.uz/docs/3336169>.
- [5] Mo'minov A.R., Tillabayev M.A. Inson huquqlari: darslik / mas'ul muharrir A.X. Saidov. 2-nashr. — T.: Adolat, 2013. 408-410, 426-430-betlar.
- [6] O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy sud ishlarini yuritish to'g'risidagi kodeksi. <https://lex.uz/docs/3527353>.
- [7] O'zbekiston Respublikasining 2024-yil 16-yanvardagi "Davlat boji to'g'risida"gi qonuni. <https://lex.uz/ru/docs/6757759>.
- [8] O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi. <https://lex.uz/docs/111189>.
- [9] "O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Inson huquqlari bo'yicha vakili (ombudsman) to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasining 2024-yil 15-noyabrdagi

qonuni. <https://lex.uz/docs/7223219>; Mo'minov A.R., Tillabayev M.A. Ko'rsatilgan asar. 426-430-betlar.

[10] "O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyaviy sudi to'g'risida"gi 2021-yil 27-apreldagi Konstitutsiyaviy Qonun. <https://lex.uz/docs/5391934>.

[11] Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi. <https://lex.uz/docs/7338189>.

[12] Bokiye S. Inson huquqlarini himoya qilish sohasida milliy indikatorlarni shakllantirishning dolzarb masalalari: magistrlik dissertatsiyasi. — Toshkent: O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi Akademiyasi, 2022. 8-10, 70-79-betlar.